

## TEXNIKA OLIY O'QUV YURTLARIDA MUHANDISLIK PSIXOLOGIYASI FANINI O'QITISHNING AHAMIYATI

**Yulchiyeva Zulfizarxon Nadjibullayevna,**  
*TDTU Pedagogika va psixologiya kafedrasi mudiri, dotsent*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada texnika oliy o'quv yurtida ta'lim oluvchilarga muhandislik psixologiyasi fanining o'qitilishi, fanning qanday ahamiyatga egaligi va afzallik jihatlarini yoritib berishga harakat qilindi.

**Аннотация.** В данной статье предпринята попытка объяснить студентам технического вуза важность и преимущества науки инженерная психология.

**Annotation.** This article makes an attempt to explain to technical university students the importance and advantages of the science of engineering psychology.

Har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi fuqarolar aqliy va axloqiy salohiyatining rivojlanganligiga bog'liq. Zero, jamiyatimizning ma'naviy yangilanishida, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat qurish kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol o'ynaydi.

Ta'kidlash lozimki, barkamol insonning shakllanishi uning munosib kasb-korni egallashi jamiyat taraqqiyoti uchun baholi qudrati o'z hissasini qo'shib yashashi va shu orqali jamiyatda o'zligini namoyon etishi, ya'ni shaxsning kamol topishi e'tiborlidir. Komillik sari intilish shaxsning kasbiy shakllanishi bilan birgalikda yaxlit holda kechadigan va deyarli bir umr davom etadigan murakkab jarayondir. Keng ma'noda kasbiy shakllanish deganda insonning o'z aqliy qobiliyatlari jismoniy imkoniyatlari u yoki bu sohaga bo'lgan layoqati, qiziqish va intilishlari, shuningdek, qadriyat va dunyoqarashiga ko'ra biror- bir kasb sohasida ta'lim olish keyinchalik shu sohaga kirishib, moslasha borishi va nihoyat yillar davomida yetuk va malakali mutaxassis yetishishi tushuniladi.

Haqiqatan ham bu cheksiz murakkab orqaga qaytarilmaydigan muhim jarayon bo'lib, unda inson manfaatlari yo'lidan unumli foydalanishni tashkil etish, bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Bu borada kasb psixologiyasining ham o'rni beqiyos, shu jihatdan aynan u **mehnat psixologiyasi, muhandislik psixologiyasi, yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya** fanlarining obyekti va predmetidan farqlanadi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Saeman, H. (1998, July/August). Survey: Psychologists' incomes plummet. *The National Psychologist*, 1-2.

Ayni texnika oliy o'quv yurtlarida muhandislik psixologiyasining ahamiyatini yoritarkanmiz, ta'kidlash lozimki, muhandislik psixologiyasi – inson va texnik tuzilmalar o'rtasidagi informatsion aloqa vositalari va jarayonlarini o'rganuvchi psixologiya tarmog'idir.

Bundan tashqari muhandislik psixologiyasi psixologiyaning texnik moslamalar bilan uni boshqaruvchi kishilar o'rtasidagi o'zaro bog'lanish hamda o'zaro ta'sirini tekshirish bilan shug'ullanuvchi maxsus sohasi bo'lib, muhandislik psixologiyasining ilmiy vazifasi optimal konstruksiyalarni psixofiziologik jihatdan asoslash va mehnat unumdorligini orttiruvchi psixikani loyihalashda mutaxassis injenerlarga bevosita yordam berishdan iboratdir. Shuningdek, topshiriqlarni tahlil etish hamda bajarilgan ishlarni tahlil etish metodi ham muhandislik psixologiyasida keng qo'llaniladi.

Muhandislik psixologiyasi fan sifatida ikkilamchi xususiyatga ega. Bir tomondan, u insonni mehnat jarayonida ruhiyat namoyon bo'lishining to'laqonliligini o'rganadigan mustaqil psixologik intizom desak mubolag'a bo'lmaydi. Boshqa tomondan, muhandislik psixologiyasida texnologiya dizayniga oid aniq texnik va muhandislik tomoni mavjud. Bu esa o'z-o'zidan tadqiqotchi obyektning o'ziga xos xususiyatiga bog'liq bo'lib, bu tabiatda, "odam-mashin" tizimidir.

Sharq allomalari asarlarida kasb-hunar va kasb tanlash masalasi, o'zbek psixologlari tadqiqotlarida kasb tanlash va kasbga yo'naltirish muammolari, kasb ta'limi faoliyati va unga qo'yiladigan zamonaviy talabalar, kasb tushunchasi va kasblarni psixologik tasniflash, kasbiy professiogramma va uning psixologik mazmuni, kasb psixologiyasida kasbiy motiv va motivatsiya, kasbiy shakllanish jarayonida shaxs taraqqiyoti va shaxsning kasbiy kamoloti, mehnat jarayonida subyektning kasbiy shakllanishi va kasbiy yetuklik muammosi, kasbiy sifatlar va kasbiy identifikatsiya, shaxsda kasbiy anglashning va shaxs shakllanishining turli bosqichlarida kasbiy o'zlikni anglash, shaxsiy fazilatlarining kasb tanlashdagi roli, kasb tanlashga yo'llashning umumiy masalalari va uning psixologik mohiyati, kasbiy faoliyat psixodiagnostikasi, kasbiy faoliyat darajalari va ko'rsatkichlarini tekshirish yo'llari, kasbiy layoqat tashxisi, reoriyentatsiya psixologik muammo sifatida, kasb tanlashga ta'sir etuvchi asosiy omillar, mutaxassis attestatsiyasining psixologik jihatlari haqida juda qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Bugungi ta'lim mazmunini ham ayni sharq ta'limotining mohiyatiga asoslanib tashkil etar ekanmiz, har qanday kasbga yo'naltirishda psixologik yondashuv har doim ham o'zini oqlagan.

Ravshanki, yoshlarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi, faqatgina yosh xususiyatlariga bog'liq emas, u ma'lum yoshga kelib o'z-o'zidan shakllanib

qolmaydi. Yoshlarning kasb tanlashga pedagogik-psixologik bilim, ko'nikma, malakalar, shuningdek, jamiyatning ta'siri orqali tayyorlash va tarbiyalash lozim. Mazkur jarayonda shaxsdan kasbga doir bilimlarga ega bo'lish talab qilinadi. Shuning uchun ham talabalarni kasblar olamiga doir bilimlar bilan qurollantirish hamda amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilish lozim.

Tadqiq etilayotgan masala, ya'ni texnika oliy o'quv yurtlarida talabalarni o'z kasbining asl egasi qilib tarbiyalashda muhandislik psixologiyasi fanini o'qitishga ehtiyoj seziladi. Shundagina kasb tanlash jarayonida yuzaga keladigan turli qiyinchilik, ziddiyat, to'siqlarni oldini olgan holda talaba-yoshlarni ongli ravishda kasbga yo'llash imkoniga ega bo'lamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Кулагин. В.Б. Основы профессиональной психодиагностики. Москва 1998.
2. Леонтьев Д.А. Методика изучения ценностных ориентаций. — М., 1992.
3. Снайдер Д. Практическая психология для подростков, или как найти свое место в жизни. — М., 2000.